

KONFRONTATSIYA VA KONFLIKT: IJTIMOY-FALSAFIY MOHIYAT

Adizov Azim Tolibovich

Buxoro davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.22857231>

ANNOTATSIYA: Mazkur maqolada ijtimoiy fanlarda muhim nazariy-metodologik ahamiyatga ega bo'lgan "konfrontatsiya" va "konflikt" tushunchalarining mazmun-mohiyati, o'zaro bog'liqligi hamda farqli jihatlari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Konfrontatsiya, konflikt, musobaqalashuv, raqobat, nizo, ijtimoiy hodisa, tortishuv, falsafiy tahlil.

Jamiyat taraqqiyoti jarayonida turli ijtimoiy guruhlar, shaxslar, institutlar va jamoalar o'rtasida manfaatlar, ehtiyojlar, maqsadlar, qadriyatlar hamda qarashlarning o'zaro mos kelmasligi natijasida turli xil qarama-qarshiliklar yuzaga keladi. Mazkur qarama-qarshiliklar ijtimoiy munosabatlarning ajralmas tarkibiy qismi bo'lib, ularning namoyon bo'lish shakllari, rivojlanish darajasi va oqibatlari bir-biridan farq qiladi. Ijtimoiy fanlarda bunday jarayonlarni ifodalashda "konflikt" va "konfrontatsiya" tushunchalaridan keng foydalaniladi. Ushbu tushunchalar mazmunan bir-biriga yaqin bo'lsa-da, ularning ijtimoiy hodisalarni ifodalash ko'lami, namoyon bo'lish shakllari va dinamik xususiyatlarida muayyan farqlar mavjud.

"Konflikt" tushunchasi falsafiy tahlil qilingan odatda qarama-qarshi manfaatlar, maqsadlar, qadriyatlar yoki pozitsiyalarga ega bo'lgan tomonlarning o'zaro to'qnashuvi bilan bog'liq jarayonni anglatib, konflikt shaxslararo munosabatlardan tortib, guruhlar, tashkilotlar va jamiyat miqyosidagi munosabatlarga ham bo'lgan turli darajalarda yuzaga kelishi mumkin. U ijtimoiy munosabatlarning buzilishiga olib kelishi bilan bir qatorda, mavjud muammolarni aniqlash, manfaatlarini qayta muvofiqlashtirish va yangi ijtimoiy munosabatlar shakllanishiga ham turtki berishi mumkin. Shu bois konfliktni faqat salbiy hodisa sifatida baholash emas, balki uning kelib chiqish sabablari, kechish xususiyatlari va ijtimoiy funksiyalarini kompleks o'rganish muhimdir.

Konfrontatsiya esa qarama-qarshi tomonlarning bir-biriga nisbatan ochiq yoki yashirin tarzda qarshi turishi, o'z manfaat va pozitsiyalarini himoya qilishi bilan tavsiflanadigan munosabatlar holatini ifodalaydi. Konfrontatsiyada tomonlar o'rtasidagi qarama-qarshilik nisbatan barqaror tus olishi, qarama-qarshi pozitsiyalarning aniq shakllanishi va o'zaro ta'sirning keskinlashuvi kuzatilishi mumkin. Shu jihatdan konfrontatsiyani konfliktning muayyan shakli yoki rivojlanish holati sifatida talqin qilish mumkin bo'lsa-da, bu ikki tushunchani aynanlashtirish ilmiy jihatdan to'liq asoslangan yondashuv hisoblanmaydi. Ularning o'rtasidagi o'xshash va farqli jihatlarni aniqlash ijtimoiy qarama-qarshiliklarning mohiyatini chuqurroq anglash imkonini beradi.

Bugungi globallashuv sharoitida ijtimoiy munosabatlarning murakkablashuvi, iqtisodiy va ijtimoiy manfaatlarining xilma-xilligi, qadriyatlar tizimidagi o'zgarishlar hamda axborot-kommunikatsiya makonining kengayishi konflikt va konfrontatsiyaning yangi ko'rinishlarini yuzaga keltirmoqda. Ayniqsa, an'anaviy ijtimoiy munosabatlar bilan bir qatorda virtual makondagi qarama-qarshiliklar, madaniy va qadriyatlar asosidagi tafovutlar, guruhlararo manfaatlar to'qnashuvi mazkur hodisalarni yangicha metodologik yondashuvlar asosida tadqiq etishni taqozo etmoqda.

Ilmiy-siyosiy adabiyotlarda “konflikt” tushunchasi turlicha ta’riflanadi. Shu bois ham “konflikt” atamasining ko’plab ma’nodagi ta’riflari bor. Ulardan eng asosiysi mazkur atamaning tomonlar o’rtasidagi qarama-qarshilik, avvalo ijtimoiy ziddiyat tushunchasiga yaqinligidir.

Ma’lumki, har qanday jamiyatning yuzaga kelishi asosida muayyan konfliktlarni, qarama-qarshiliklarni bartaraf etishdek murakkab jarayon yotadi. Bu holatni so’zlardangina iborat deb hisoblagan marksistik ta’limot, bizning jamiyatimizga bunday jarayon xos emas, deb konfliktologiya muammolarini inkor etib kelgan. Qolaversa, sotsializm o’zining jamiyatda sinfiy konfliktlar yo’q degan yana bir g’oyasi bilan ajralib turadi. 30 yillarning oxiridayoq bir qator mualliflar sotsialistik jamiyat taraqqiyoti bu “konfliktsiz” jamiyatga erishishdir, degan g’oyani ilgari surdilar. Bu g’oya sotsializm davrida ishlab chiqarish munosabatlarining ishlab chiqarish kuchlariga mos kelishini e’tirof etganligi bilan ham ajralib turadi.

Jamiyatdagi muayyan qarama-qarshilik muammolari bilan shug’ullanishni to’la ma’nodagi konfliktologiya muammolari bilan shug’ullanish deyish qiyin. Biroq konfliktlarni tadqiq etish muayyan qarama-qarshiliklarni ham tadqiq etishdir, deyishimiz mumkin. Konflikt va qarama-qarshilik o’rtasidagi yaqinlik va farkli jihatlar, bizning-cha, quyidagilardir, ya’ni:

birinchidan, nazariyada konflikt va qarama-qarshilik sinonimi so’zlar bo’lishi mumkin, biroq amaliyotda ularning chegaralari bir-biriga mos kelmaydi;

ikkinchidan, birgina qarama-qarshilik o’zaro ayri-ayri holda tahlil qilinishi mumkin, ammo konfliktga bunday tahliliy yondashish o’ta sodda holatdir;

uchinchidan, har qanday qarama-qarshilik muayyan sharoitda konfliktga aylanmasdan barham topishi mumkin;

to’rtinchidan, har qanday qarama-qarshilik konfliktlarning boshlang’ich nuqtasi ham hisoblanishi mumkin. Chunki qarama-qarshilik harakatlari kuchlarning o’zaro munosabatlarga kirishuvi bilan qarama-qarshilik ziddiyatiga aylanadi.

Shunday qilib, konflikt ob’ektiv va sub’ektiv sabablar asosida qarama-qarshi tomonlarni harakatlantiruvchi kuchlarning to’qnashuvi nuqtasidir.

“Qarama-qarshilik” tushunchasidan tashqari “konflikt” tushunchasiga sinonim sifatida ba’zan musobaqalashuv, tortishuv, raqobat tushunchalari ham ishlatiladi. To’g’ri, bu tushunchalarning amaliyotida ham konfliktdagi singari keskinlik bor. Biroq konflikt zamiridagi keskinlik zulmga, o’z ta’sirini olish kabi xususiyatlar bilan butunlay bu tushunchalardan farq qiladi. Demak, konflikt va musobaqalashuv, konflikt va tortishuv, konflikt va raqobat bir narsa emas. Biroq, musobaqalashuv, tortishuv va raqobat konflikt darajasiga ko’tarilishi mumkin.

Konfrontatsiya va konflikt hodisalarini ijtimoiy-falsafiy jihatdan tahlil qilish shuni ko’rsatadiki, ular jamiyatning rivojlanish jarayonida yuzaga keladigan qarama-qarshiliklarning turli daraja va shakllardagi namoyon bo’lishini ifodalovchi murakkab ijtimoiy hodisalardir. Ularning mazmunini faqat qarama-qarshi tomonlarning mavjudligi bilan cheklab bo’lmaydi. Mazkur jarayonlarning shakllanishi va rivojlanishida manfaatlar, ehtiyojlar, qadriyatlar, maqsadlar, ijtimoiy mavqe hamda mavjud ijtimoiy sharoitlarning o’zaro ta’siri muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. Степанов Евгений Иванович Современная конфликтология: Общие подходы к моделированию, мониторингу и менеджменту} социальных конфликтов: Учебное пособие. — М.: Издательство ЛКИ, 2008. -62 с.
2. Djumayev R.J. Konfliktologiya. (Monografiya). –Toshkent., 2018. –298 b.
3. Социальные конфликты: Экспертиза, прогнозирование, технология разрешения. Вып.1. М.,1991. С.27
4. Леонов Н.И. Конфликтология. –Москва: Воронеж, 2006. –С.43.